

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHISINING IJTIMOIIY MAS'ULIYATI TAHLILI

Maxkamov Axrorjon Adxamjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22246388>

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt va raqamlashtirish jarayonlarining davlat xizmati institutiga ta'siri hamda ushbu jarayonlar natijasida davlat xizmatchisining ijtimoiy roli, kasbiy maqomi, mas'uliyati va davlat–fuqaro munosabatlaridagi o'rni transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Raqamlashtirish davlat boshqaruvida faqat texnik vositalarning yangilanishi emas, balki hokimiyat, boshqaruv, mas'uliyat, ishonch, insoniylik va ijtimoiy adolat tushunchalarining mazmunini qayta ko'rib chiqishni talab qiladigan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellektning davlat boshqaruvida kirib kelishi natijasida davlat xizmatchisining an'anaviy ma'muriy-ijrochi funksiyasi transformatsiyaga uchrab, uni algoritmik qarorlarni baholovchi, texnologik jarayonlarni nazorat qiluvchi, fuqaro manfaatlarini himoya qiluvchi va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi yangi turdagi raqamli vositachilikni amalga oshiruvchi subyektga aylantirayotgani asoslanadi. Maqolada “algoritmik mas'uliyat”, “raqamli mediator”, “kritik ishonch”, “insoniy nazorat” va “algoritmik legitimlik” tushunchalari konseptual kategoriyalar sifatida tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning davlat boshqaruvidagi samaradorligi uning texnik imkoniyatlari bilangina emas, balki inson huquqlari, ijtimoiy adolat, shaffoflik, hisobdorlik va davlat institutlariga bo'lgan ishonchni saqlash imkoniyati bilan belgilanadi, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamlashtirish, davlat xizmati, davlat xizmatchisi, ijtimoiy rol, mas'uliyat, algoritmik mas'uliyat, raqamli davlat, davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, algoritmik legitimlik, insoniy nazorat, raqamli mediator, institutsional ishonch.

KIRISH

XXI asrning ikkinchi choragiga kelib raqamlashtirish jamiyat taraqqiyotining alohida texnologik yo'nalishi bo'lishdan chiqib, ijtimoiy munosabatlarning mavjud shakllarini qayta tashkil etuvchi universal transformatsion omilga aylanmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining davlat boshqaruvi tizimiga jadal kirib kelishi davlat hokimiyatining an'anaviy faoliyat mexanizmlariga, davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarga, boshqaruv qarorlarining qabul qilinish usullariga va davlat xizmatchisining kasbiy-ijtimoiy maqomiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil holatida tashkilotga a'zo 36 davlatning 35 tasida davlat boshqaruvining kamida bir yo'nalishida sun'iy intellektdan foydalanilgan bo'lib, ayniqsa ichki ma'muriy jarayonlar va davlat xizmatlarida uning qo'llanishi tez sur'atlarda kengaymoqda [1. 1–3-b.].

Mazkur jarayonni faqat “davlat xizmatlarini elektronlashtirish” yoki “boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish” sifatida tushunish yetarli emas. Chunki sun'iy intellekt davlat boshqaruvida oddiy texnik vosita sifatida kirib kelmaydi. U qaror qabul qilishning epistemologik asoslariga, ya'ni davlat organi qanday qilib “biladi”, qanday ma'lumotga tayanadi, qaysi holatni muhim deb hisoblaydi, qanday xavfni oldindan prognoz qiladi va qanday qarorni “maqbul” deb belgilaydi, degan fundamental savollarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda sun'iy intellekt davlat boshqaruvining nafaqat texnologik, balki epistemologik va aksiologik infratuzilmasini ham o'zgartirmoqda.

An'anaviy davlat boshqaruvi modelida davlat xizmatchisi qaror qabul qilish jarayonining markaziy subyekti sifatida namoyon bo'lgan. U hujjatlarni o'rgangan, ma'lumotlarni tahlil qilgan, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqqan, vaziyatga huquqiy va ma'muriy baho bergan hamda tegishli qarorni shakllantirgan. Bunda davlat xizmatchisining kasbiy tajribasi, huquqiy bilimlari, institutsional xotirasi va shaxsiy mulohazasi boshqaruv qarorining muhim manbasi hisoblangan. Raqamli boshqaruvda esa ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tasniflash, prognozlash va muayyan qaror variantlarini tavsiya qilishning katta qismi algoritmik tizimlarga o'tkazilmoqda. Natijada davlat xizmatchisining faoliyati "ma'lumotni qayta ishlash"dan "algoritmik qayta ishlangan ma'lumotni ijtimoiy jihatdan talqin qilish va baholash"ga tomon siljimoqda. Shu nuqtayi nazardan maqolada asosiy metodologik savol quyidagicha qo'yiladi: agar davlat qarorining dastlabki axborot va analitik asosi inson tomonidan emas, balki sun'iy intellekt tomonidan shakllantirilayotgan bo'lsa, davlat xizmatchisining ijtimoiy roli nimadan iborat bo'ladi va qaror oqibatlari uchun mas'uliyat kimga yuklanadi? Mazkur savolga javob berish uchun davlat xizmatchisini texnologiya bilan raqobat qiluvchi subyekt sifatida emas, balki texnologik tizimlarning ijtimoiy mazmunini belgilovchi va ularni inson manfaatlarini bilan muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida ko'rib chiqish zarur.

UNESCOning sun'iy intellekt etikasi bo'yicha tavsiyasida inson huquqlari va inson qadriyatining markaziy qadriyat sifatida belgilanib, sun'iy intellekt tizimlari ustidan inson nazorati, shaffoflik, adolatlilik, hisobdorlik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyillari alohida ta'kidlanadi [2. 17–26-b.]. Bu esa sun'iy intellekt davlat boshqaruvida qo'llanilgan taqdirda ham yakuniy ijtimoiy mas'uliyatni texnologiyani o'ziga yuklab bo'lmasligini ko'rsatadi. Demak, raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisining mas'uliyati yo'qolmaydi, balki **o'z mazmunini o'zgartiradi**. Agar ilgari u asosan qonun va ma'muriy topshiriqni to'g'ri bajarish uchun mas'ul bo'lgan bo'lsa, endilikda u ma'lumotlarning sifati, algoritm natijalarining asoslanganligi, texnologik qarorlarning ijtimoiy oqibatlari, fuqarolarning huquqlari, algoritmik diskriminatsiyaning oldini olish va inson nazoratini ta'minlash uchun ham mas'ul bo'ladi. OECD tamoyillarida ham sun'iy intellekt bilan bog'liq faoliyatda inson agentligi va nazorati, shaffoflik va tushuntiriluvchanlik, xavfsizlik hamda hisobdorlik asosiy qadriyatlar sifatida belgilanadi [3. 1–4-b.].

Maqolaning maqsadi sun'iy intellekt va raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisining ijtimoiy roli hamda mas'uliyatining transformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan konseptual tahlil qilish, davlat xizmatchisining yangi maqomini "algoritmga bo'ysunuvchi ijrochi" emas, balki "inson–algoritm–davlat–jamiyat" munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi mas'ul ijtimoiy subyekt sifatida asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-falsafiy, tizimli, dialektik, institutsional, aksiologik va konseptual tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy mantig'i shundan iboratki, sun'iy intellektning davlat boshqaruviga kirib kelishi alohida texnik hodisa sifatida emas, balki davlat hokimiyati va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning institutsional transformatsiyasi sifatida tahlil qilinadi. Bunday yondashuv davlat xizmatchisining rolini faqat uning funksional vazifalari doirasida emas, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi vositachilik, ijtimoiy ishonchni shakllantirish, jamoat manfaatlarini ifodalash va

inson huquqlarini himoya qilish kabi kengroq kategoriyalar orqali ochib berish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv asosida davlat xizmati “davlat organi – davlat xizmatchisi – texnologik platforma – sun’iy intellekt – fuqaro – jamiyat” elementlaridan tashkil topgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida qaraldi. Bunda sun’iy intellekt tizimga tashqi vosita sifatida emas, balki qaror ishlab chiqish jarayonining ichki elementi sifatida kiradi. Shuning uchun algoritmning o’zgarishi davlat xizmatchisining ish uslubinigina emas, uning vakolati, mas’uliyati, professional identiteti va fuqaro bilan munosabatlarini ham o’zgartiradi.

Dialektik metod esa raqamlashtirishning qarama-qarshi tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Bir tomondan, sun’iy intellekt davlat xizmatlarining tezligi, aniqligi, individuallashuvi va ma’muriy samaradorligini oshirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, algoritmik qarorlarning tushunarsizligi, ma’lumotlardagi tarafkashlik, raqamli tengsizlik, shaxsiy ma’lumotlarning haddan tashqari yig’ilishi va inson nazoratining susayishi yangi xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. OECD ham davlat sektorida AI samaradorlik va javobchanlikni oshirishi mumkinligini, biroq noto’g’ri ma’lumotlar, shaffoflikning yetishmasligi, ortiqcha tayanish va raqamli tafovutlar ishonchga salbiy ta’sir qilishi mumkinligini qayd etadi [4. 6–9-b.].

Aksiologik tahlil orqali esa “samaradorlik” va “adolat” o’rtasidagi munosabat o’rganiladi. Davlat boshqaruvida texnologik samaradorlik o’z-o’zicha oliy qadriyat bo’la olmaydi. Chunki xususiy biznes uchun foydali bo’lgan avtomatlashtirish mezoni davlat boshqaruvida har doim ham maqbul emas. Davlat qarorining mezoni nafaqat tezlik va xarajatni kamaytirish, balki inson huquqlari, qonuniylik, tenglik, ijtimoiy adolat va jamoat manfaatlariga muvofiqlik bo’lishi kerak. Shu sababli maqolada “texnologik samaradorlik” va “ijtimoiy legitimlik” alohida, biroq o’zaro bog’liq kategoriyalar sifatida qaraladi.

Konseptual tahlil doirasida “ijtimoiy rol”, “mas’uliyat”, “algoritmik mas’uliyat”, “raqamli mediator”, “algoritmik legitimlik” va “kritik ishonch” tushunchalari o’zaro bog’liq nazariy kategoriyalar sifatida ishlab chiqiladi. Ushbu tushunchalar orqali davlat xizmatchisining raqamli jamiyatdagi yangi maqomini tavsiflovchi nazariy model shakllantiriladi.

NATIJALAR

1. Davlat xizmatchisining ijtimoiy rolini tushuntirishning yangi konseptual modeli.

Davlat xizmatchisining ijtimoiy rolini faqat lavozim yo’riqnomasi yoki ma’muriy vakolatlari orqali izohlash yetarli emas. Ijtimoiy rol deganda muayyan shaxsning jamiyatdagi institutsional maqomidan kelib chiqadigan, undan kutiladigan xatti-harakatlar, qadriyatlar, mas’uliyatlar va ijtimoiy funksiyalar majmuasi tushuniladi. Shu jihatdan davlat xizmatchisi davlat hokimiyati bilan fuqaro o’rtasidagi eng muhim amaliy vositachilardan biridir. U orqali davlatning qonunlari, siyosati va boshqaruv qarorlari kundalik ijtimoiy hayotga kirib boradi. Demak, davlat xizmatchisining harakati oddiy individual xatti-harakat emas, balki davlat institutining jamiyatdagi real ko’rinishidir.

Raqamlashtirish ana shu ijtimoiy rolning shaklini o’zgartirmoqda. Avvallari fuqaro davlatni ko’pincha davlat xizmatchisi timsolida tasavvur qilgan bo’lsa, raqamli davlat sharoitida davlat ko’pincha elektron platforma, mobil ilova, avtomatik xabarnoma yoki algoritmik qaror shaklida namoyon bo’lmoqda. Bu holat davlat xizmatchisini ko’zga ko’rinadigan ma’muriy vakildan qisman “ko’rinmas” institutsional subyektga aylantiradi. Biroq aynan shu “ko’rinmaslik” uning ijtimoiy ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, texnologik tizim fuqaroga

tushunarsiz bo'lgan vaziyatda davlat xizmatchisi yana insoniy izohlash, vositachilik va himoya funksiyasini bajarishga majbur bo'ladi. Shu sababli davlat xizmatchisining yangi ijtimoiy rolini uch bosqichli transformatsiya orqali ifodalash mumkin: ma'muriy ijrochi → raqamli operator → algoritmik mediator. Birinchi bosqichda u davlat qarorini bajaradi. Ikkinchi bosqichda u raqamli tizimlardan foydalanadi. Uchinchi bosqichda esa inson va algoritm o'rtasidagi qaroriy munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Aynan uchinchi bosqich davlat xizmatchisining zamonaviy ijtimoiy rolini tushunish uchun prinsipial ahamiyatga ega. Bu yerda "algoritmik mediator" tushunchasi taklif qilinadi. Algoritmik mediator — davlat qarorlarining texnologik shakllanishi bilan fuqarolarning insoniy, huquqiy va ijtimoiy manfaatlari o'rtasida vositachilik qiluvchi davlat xizmatchisidir. Uning vazifasi algoritmni shunchaki ishga tushirish emas, balki algoritmik natijaning inson hayotidagi mazmunini anglash, zarur hollarda uni qayta ko'rib chiqish va fuqaroga tushuntirishdan iborat.

Bunday yondashuv davlat xizmatchisini texnologiyaga qarshi qo'yishdan ham, uni texnologiyaga to'liq bo'ysundirishdan ham voz kechishni anglatadi. Inson va sun'iy intellekt munosabati "inson yoki mashina" dilemmasi sifatida emas, balki "inson va mashina" hamkorligining ijtimoiy mas'uliyat chegaralarini aniqlash masalasi sifatida qaralishi kerak.

2. Sun'iy intellekt sharoitida davlat xizmatchisining maqomi: ijrochidan interpretatorga. Raqamli transformatsiyaning eng muhim natijalaridan biri davlat xizmatchisining kasbiy faoliyatida "interpretatsiya" funksiyasining kuchayishidir. Sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni tez qayta ishlashi, muayyan qonuniyatlarni aniqlashi, ehtimoliy natijalarni prognoz qilishi va qaror variantlarini tavsiya qilishi mumkin. Ammo algoritmik natija o'z-o'zidan ijtimoiy ma'noga ega qaror bo'la olmaydi. Chunki ijtimoiy vaziyat har doim ma'lumotlar to'plamidan kattaroqdir.

Masalan, algoritm fuqaroning davlat xizmatiga ehtiyojini ma'lum statistik ko'rsatkichlar asosida baholashi mumkin. Ammo fuqaroning hayotiy sharoiti, psixologik holati, oilaviy vaziyati yoki ma'lumotlar bazasida aks etmagan boshqa omillar algoritmik modelda mavjud bo'lmasligi mumkin. Demak, algoritm "ma'lumotlar asosidagi haqiqat"ni taklif qiladi, davlat xizmatchisi esa ushbu haqiqatning ijtimoiy kontekstini aniqlashi lozim. Shu sababli davlat xizmatchisining professional faoliyatida **interpretativ mas'uliyat** paydo bo'ladi. Interpretativ mas'uliyat — algoritm tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumot, prognoz yoki tavsiyaning real ijtimoiy vaziyatga qanchalik mos kelishini baholash mas'uliyatidir. Bu mas'uliyat algoritm natijasini rad etishni emas, balki uni ijtimoiy kontekstga joylashtirishni anglatadi.

Mazkur jarayonda davlat xizmatchisi "algoritm shunday dedi" degan pozitsiyadan voz kechishi kerak. Chunki bunday yondashuv mas'uliyatni insondan texnologiyaga ko'chirish illuziyasini yaratadi. Aslida esa algoritm mustaqil ijtimoiy subyekt emas. UNESCO ham yakuniy mas'uliyat va hisobdorlik inson yoki yuridik shaxs zimmasida qolishi, sun'iy intellekt tizimining o'ziga huquqiy shaxs maqomi berilmasligi kerakligini ta'kidlaydi [5. 20–21-b.].

Demak, davlat xizmatchisining maqomi "qaror qabul qiluvchi"dan "qarorni ijtimoiy jihatdan legitimlashtiruvchi interpretator"ga o'zgaradi. Bu juda muhim nazariy o'zgarishdir. Chunki davlat xizmatchisi qarorning yagona manbai bo'lmasligi mumkin, lekin uning ijtimoiy legitimligi uchun mas'ul subyekt bo'lib qoladi.

3. "Algoritmik mas'uliyat" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni. Raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisining mas'uliyatini tushuntirish uchun an'anaviy

“xizmat vazifasi” kategoriyasi yetarli emas. Chunki sun’iy intellekt davlat xizmatchisiga yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xavflarni ham olib keladi. Shuning uchun maqolada **“algoritmik mas’uliyat”** tushunchasini davlat xizmatchisining yangi ijtimoiy-falsafiy mas’uliyat shakli sifatida taklif etish mumkin.

Algoritmik mas’uliyatni quyidagicha ta’riflash mumkin: davlat xizmatchisining sun’iy intellekt asosida shakllangan axborot, tavsiya yoki qarorlarning qonuniyligi, asoslanganligi, adolatligi, tushuntiriluvchanligi va inson manfaatlariga mosligi uchun bevosita yoki institutsional javobgarligidir.

Mazkur mas’uliyatning an’anaviy ma’muriy mas’uliyatdan farqi shundaki, u faqat yakuniy qarorni emas, balki qarorning shakllanish texnologiyasini ham nazorat qilishni talab etadi. Davlat xizmatchisi “qaror to’g’rimi?” degan savol bilan cheklanib qolmay, “bu qaror qanday ma’lumotlar asosida shakllandi?”, “algoritm qanday mezonlardan foydalandi?”, “ma’lumotlarda tarafkashlik mavjud emasmi?”, “fuqaro qaror ustidan shikoyat qila oladimi?”, “qarorning salbiy oqibatlari qanday?” kabi savollarni ham ko’rib chiqishi zarur.

OECDning yangilangan AI tamoyillarida ham AI tizimlari faoliyatining kuzatiluvchanligi, ma’lumotlar va qarorlar izini saqlash, xavflarni tizimli boshqarish hamda tizimlardan ta’sirlangan shaxslar uchun tushuntirish va e’tiroz bildirish imkoniyatlari alohida ko’rsatilgan [3. 2–4-b.].

Shu nuqtayi nazardan algoritmik mas’uliyatni to’rt darajaga ajratish mumkin: **birinchi daraja — ma’lumotlar mas’uliyati**. Davlat xizmatchisi qaror qabul qilish uchun foydalanilayotgan ma’lumotlarning to’g’riligi va dolzarbligiga e’tibor beradi; **ikkinchi daraja — texnologik mas’uliyat**. Algoritmning ishlash prinsiplari, cheklovlari va ehtimoliy xatolarini tushunish talab qilinadi; **uchinchi daraja — ijtimoiy mas’uliyat**. Algoritmik qarorning turli ijtimoiy guruhlarga ta’siri baholanadi; **to’rtinchi daraja — axloqiy mas’uliyat**. Qaror inson qadr-qimmati, huquqlari, tengligi va adolat tamoyillariga mosligi nuqtayi nazaridan baholanadi. Demak, algoritmik mas’uliyat texnik va axloqiy mas’uliyatning kesishish nuqtasidir.

4. Davlat xizmatchisi va “kritik ishonch” fenomeni. Sun’iy intellektning davlat boshqaruviga kirib kelishi “ishonch” tushunchasini ham qayta talqin qilishni talab etadi. An’anaviy boshqaruvda fuqaro davlat xizmatchisining professional tajribasiga tayanishi mumkin edi. Raqamli davlatda esa “algoritmga ishonch” tushunchasi paydo bo’ladi. Biroq algoritmga mutlaq ishonch xavfli, unga mutlaq ishonchsizlik esa raqamli texnologiyalarning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli maqolada **“kritik ishonch”** konsepsiyasi taklif etiladi. Kritik ishonch — sun’iy intellektning imkoniyatlarini tan olgan holda uning natijalarini mutlaq haqiqat deb qabul qilmaslik, algoritmik tavsiyalarni insoniy, huquqiy va ijtimoiy mezonlar asosida tekshirishga tayyorlikdir.

Kritik ishonch davlat xizmatchisidan ikki qarama-qarshi pozitsiyani birlashtirishni talab qiladi: bir tomondan, u texnologik tizimga ishonib, undan foydalanishi; ikkinchi tomondan esa uning natijalarini shubhasiz haqiqat deb qabul qilmasligi kerak. Aynan mana shu holat davlat xizmatchisining yangi refleksiv professional identitetini shakllantiradi. OECD ham AI tizimlarining shaffof va tushuntiriluvchan bo’lishi, salbiy ta’sirga uchragan shaxslar esa tegishli natijalarga e’tiroz bildirish olishi kerakligini belgilaydi [3. 2–3-b.].

5. “Algoritmik legitimlik”: davlat qarorining yangi mezon. Davlat hokimiyatining legitimligi an’anaviy siyosiy-falsafiy tafakkurda qonuniylik, vakillik, jamoatchilik roziligi va

adolat bilan bog'langan. Raqamli davlat sharoitida esa legitimlikning yangi o'lchami — **algoritmik legitimlik** paydo bo'lmoqda.

Algoritmik legitimlik deganda algoritm yordamida shakllangan davlat qarorining fuqarolar tomonidan tushunarli, adolatli, asoslangan va e'tiroz bildirish mumkin bo'lgan qaror sifatida qabul qilinishini ta'minlovchi shartlar majmui tushuniladi. Bu yerda juda muhim farq mavjud: **algoritmik to'g'rilik algoritmik legitimlikni kafolatlamaydi**. Algoritm statistik jihatdan aniq ishlashi mumkin, biroq uning qarori insoniy jihatdan adolatsiz bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun davlat boshqaruvida "algoritm xatosiz ishlayaptimi?" degan savol bilan bir qatorda "algoritmning ishlashi ijtimoiy jihatdan maqbulmi?" degan savol ham qo'yilishi kerak.

UNESCO sun'iy intellektdan foydalanishda inson huquqlari, adolat, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, shaffoflik va inson nazoratini asosiy tamoyillar sifatida belgilaydi [2. 21–27-b.].

Shu asosda algoritmik legitimlikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin: Algoritmik legitimlik = qonuniylik + shaffoflik + tushuntiriluvchanlik + adolat + inson nazorati + e'tiroz bildirish imkoniyati. Bu formula davlat xizmatchisining yangi ijtimoiy rolini ham belgilaydi. U endilikda faqat qonuniy qaror qabul qilish emas, balki qarorning texnologik shakllanishi ham legitim bo'lishini ta'minlashi kerak.

6. Raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisining insonparvarlik funksiyasi.

Texnologik taraqqiyotning paradokslaridan biri shundaki, jamiyat qanchalik raqamlashtirilsa, insoniy munosabatlarning ahamiyati shunchalik ko'rinadigan bo'ladi. Chunki avtomatlashtirish standart vaziyatlarda samarali ishlashi mumkin, biroq inson hayotining murakkab, noaniq va individual holatlarida insoniy mulohaza zarurati saqlanib qoladi.

Davlat xizmatida bu ayniqsa muhim. Chunki davlat qarori ko'pincha insonning ijtimoiy mavqei, daromadi, ta'lim olish imkoniyati, sog'lig'i, ijtimoiy himoyasi yoki boshqa fundamental manfaatlariga ta'sir qiladi. Bunday vaziyatlarda "ma'lumotlar bo'yicha to'g'ri" qaror har doim ham "inson uchun adolatli" qaror bo'lavermaydi. Shuning uchun davlat xizmatchisining yangi vazifalaridan biri **insoniylikni texnologik boshqaruv tizimida saqlab qolishdan** iborat bo'ladi. Bu holat davlat xizmatchisini texnologiyaning raqibi emas, balki uning insonparvarlik chegaralarini belgilovchi subyektga aylantiradi.

OECDning 2026-yilgi Digital Government Outlook hisobotida ham davlatlarda AI qo'llanishi kengayayotgani bilan birga, yuqori xavfli sohalarda ma'lumot sifati, shaffoflik va ishonchlilik talablari kuchliroq ekanligi, shuningdek, AI boshqaruvida nazorat va maslahat mexanizmlari rivojlanayotgan bo'lsa-da, ularning faoliyati ko'pincha majburiy ijrodan ko'ra yo'riqnoma va maslahatga qaratilayotgani qayd etiladi [1. 1–5-b.]. Demak, davlat xizmatchisining insonparvarlik funksiyasi raqamli boshqaruvning "ortiqcha" elementi emas. Aksincha, aynan u texnologik boshqaruvni ijtimoiy boshqaruvga aylantiruvchi asosiy mexanizmlardan biridir.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari davlat xizmatchisining raqamli transformatsiyasini uchta asosiy konseptual o'zgarish orqali tushuntirish imkonini beradi.

Birinchi o'zgarish — **hokimiyatning ma'lumotlashuvi**. An'anaviy davlat boshqaruvida hokimiyat asosan huquqiy vakolat va institutsional mavqega tayangan bo'lsa, raqamli boshqaruvda ma'lumotni yig'ish, qayta ishlash va talqin qilish qobiliyati ham hokimiyatning muhim resursiga aylanadi. Kim ma'lumotni nazorat qilsa, u muayyan ma'noda ijtimoiy

voqelikni qanday ko'rishni ham belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli davlat xizmatchisi ma'lumotlarni boshqaruvchi subyekt sifatida katta ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'ladi.

Ikkinchi o'zgarish — **qaror qabul qilishning algoritmlashuvi**. Qaror endi faqat inson tafakkurining mahsuli emas, balki inson va algoritmning o'zaro hamkorligi natijasi sifatida yuzaga keladi. Bu esa mas'uliyatni taqsimlash muammosini keltirib chiqaradi. Biroq texnologiya huquqiy va axloqiy mas'uliyatning mustaqil tashuvchisi bo'la olmaydi. Shuning uchun davlat xizmatchisi algoritm natijasining insoniy va institutsional interpretatori sifatida qoladi.

Uchinchi o'zgarish — **davlat xizmatining vositachilik funksiyasi**. Raqamli platformalar davlat va fuqaro o'rtasidagi bevosita aloqani kamaytirishi mumkin. Lekin bu vositachilikning yo'qolishi emas, balki uning shakl almashishidir. Davlat xizmatchisi endilikda fuqaro bilan davlat o'rtasida emas, balki **fuqaro – algoritm – davlat** uchligi o'rtasida vositachilik qiladi. Ya'ni davlat xizmatchisining kelajakdagi qiymati ma'lumotni qanchalik tez qayta ishlashida emas, balki qayta ishlangan ma'lumotdan **qanday ijtimoiy xulosa chiqarishida** namoyon bo'ladi.

XULOSA

Sun'iy intellekt va raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatchisining ijtimoiy roli transformatsiyasi davlat boshqaruvining oddiy texnologik modernizatsiyasi emas, balki davlat hokimiyatining ijtimoiy tabiati, mas'uliyat mexanizmlari, institutsional ishonch va inson–davlat munosabatlarining yangi shakllarini vujudga keltiruvchi murakkab jarayondir.

Birinchidan, davlat xizmatchisi an'anaviy ma'muriy ijrochi maqomidan algoritmik mediator maqomiga o'tmoqda. U davlat, fuqaro va texnologiya o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi yangi ijtimoiy subyekt sifatida shakllanmoqda.

Ikkinchidan, raqamlashtirish davlat xizmatchisining mas'uliyatini kamaytirmaydi, balki uning mazmunini kengaytiradi. Ma'muriy mas'uliyatga qo'shimcha ravishda ma'lumotlar mas'uliyati, algoritmik mas'uliyat, interpretativ mas'uliyat va axloqiy mas'uliyat shakllanmoqda.

Uchinchidan, algoritmda davlat qarorining texnik asosini yaratishi mumkin, ammo uning ijtimoiy legitimligini ta'minlay olmaydi. Qarorning legitimligi inson nazorati, qonuniylik, shaffoflik, adolat, tushuntiriluvchanlik va e'tiroz bildirish imkoniyati bilan belgilanadi.

To'rtinchidan, davlat xizmatchisining yangi professional modeli "kritik ishonch" tamoyiliga asoslanishi kerak. U sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishi, biroq uning natijalarini mutlaq va xatosiz haqiqat sifatida qabul qilmasligi zarur.

Beshinchidan, davlat xizmatchisining kelajakdagi professional qadr-qimmati uning texnologiyani qo'llash qobiliyati bilangina emas, balki texnologiyani inson manfaatlari bilan uyg'unlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Oltinchidan, raqamli davlat sharoitida insoniylik davlat boshqaruvining texnologik jihatdan eskirgan elementi emas, balki uning legitimligini ta'minlovchi asosiy qadriyatga aylanadi.

Shunday qilib, maqolada ilgari surilgan asosiy konseptual xulosani quyidagi formula orqali ifodalash mumkin: Davlat xizmatchisining raqamli transformatsiyasi = ma'muriy ijrochi → raqamli operator → algoritmik interpretator → raqamli mediator → inson manfaatlari va davlat legitimligini himoya qiluvchi mas'ul subyekt. Bu jarayon davlat xizmatchisining ijtimoiy

rolini yo'qotmaydi, aksincha, uni yanada murakkablashtiradi. Chunki texnologiya qaror qabul qilishning texnik imkoniyatlarini kengaytirgan sari, insonning ushbu qarorlarning ma'nosi, oqibati va adolatiligi uchun javobgarligi ham kuchayadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. OECD. *Digital Government Outlook 2026: Adopting and Governing AI in Government*. Paris: OECD Publishing, 2026. 202 p.
2. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2022. 44 p.
3. OECD. *OECD AI Principles*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2024. 12 p.
4. OECD. *Governing with Artificial Intelligence: Are Governments Ready?* OECD Artificial Intelligence Papers, No. 20. Paris: OECD Publishing, 2024. 32 p.
5. UNESCO. *Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2022. 44 p.
6. OECD. *Governing with Artificial Intelligence: The State of Play and Way Forward in Core Government Functions*. Paris: OECD Publishing, 2025. 238 p.
7. OECD. *G7 Toolkit for Artificial Intelligence in the Public Sector*. Paris: OECD Publishing, 2024. 120 p.
8. Castells, M. *The Rise of the Network Society*. 2nd ed. Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. 656 p.
9. Floridi, L. *The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality*. Oxford: Oxford University Press, 2014. 256 p.
10. Zuboff, S. *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power*. New York: PublicAffairs, 2019. 704 p.
11. Eubanks, V. *Automating Inequality: How High-Tech Tools Profile, Police, and Punish the Poor*. New York: St. Martin's Press, 2018. 272 p.
12. Kitchin, R. *The Data Revolution: Big Data, Open Data, Data Infrastructures and Their Consequences*. 2nd ed. London: SAGE Publications, 2021. 256 p.
13. Brynjolfsson, E., McAfee, A. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W.W. Norton & Company, 2014. 306 p.
14. Mittelstadt, B. D., Allo, P., Taddeo, M., Wachter, S., Floridi, L. The ethics of algorithms: Mapping the debate // *Big Data & Society*. London: SAGE Publications, 2016. Vol. 3, No. 2. 1–21 p.
15. Floridi, L., Cowls, J. A unified framework of five principles for AI in society // *Harvard Data Science Review*. Cambridge: MIT Press, 2019. Vol. 1, No. 1. 1–15 p.
16. Cath, C., Wachter, S., Mittelstadt, B., Taddeo, M., Floridi, L. Artificial Intelligence and the "Good Society": The US, EU, and UK approach // *Science and Engineering Ethics*. Dordrecht: Springer, 2018. Vol. 24. 505–528 p.
17. Bovens, M. Analysing and assessing accountability: A conceptual framework // *European Law Journal*. Oxford: Wiley-Blackwell, 2007. Vol. 13, No. 4. 447–468 p.
18. Hood, C. Accountability and transparency: Siamese twins, matching parts, awkward couple? // *West European Politics*. London: Taylor & Francis, 2010. Vol. 33, No. 5. 989–1009 p.
19. Janssen, M., Brous, P., Estevez, E., Barbosa, L. S., Janowski, T. Data governance: Organizing data for trustworthy Artificial Intelligence // *Government Information Quarterly*. Amsterdam: Elsevier, 2020. Vol. 37, No. 3. 101493.